



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD-HUQUQ ISLOHOTLARINING ZAMONAVIY BOSQICHLARI

**Xayitova Salomat Jaxongir qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

*"Xalqaro huquq" fakulteti 1-bosqich talabasi.*

[salomat.xayitova@icloud.com](mailto:salomat.xayitova@icloud.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimining zamonaviy bosqichda qanday islohotlar amalga oshirilayotgani tahlil qilingan. Shuningdek, mustaqillikdan keyingi davrdagi tarixiy jarayonlar, qonunchilik asoslari, elektron va onlayn sudlov tizimlari va xalqaro baholashlar asosida sud tizimining rivojlanishi yoritiladi. Maqolada, shu bilan birga, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ham ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** sud-huquq tizimi, islohotlar, mustaqillik, adolat, qonunchilik, xalqaro baholash.

## СОВРЕМЕННЫЕ ЭТАПЫ СУДЕБНО-ПРАВОВОЙ РЕФОРМЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

**Аннотация.** В статье рассматриваются современные этапы реформы судебно-правовой системы Республики Узбекистан. Автор анализирует исторические предпосылки, законодательные основы, внедрение электронного правосудия и международную оценку реформ. Также представлены актуальные проблемы системы и предложения по их решению.

**Ключевые слова:** судебно-правовая система, реформы, независимость, справедливость, законодательство, международная оценка.

## MODERN STAGES OF JUDICIAL AND LEGAL REFORMS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Abstract.** This article analyzes the current stage of judicial and legal reforms in the Republic of Uzbekistan. The author examines the historical background, legislative foundations, the introduction of electronic justice systems, and international assessments of the reforms. The article also provides insights into existing challenges and offers recommendations for improvement.

**Keywords:** judicial-legal system, reforms, independence, justice, legislation, international evaluation.

**KIRISH:** O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, yangi davlat qurilishi va demokratik jamiyat asoslarini shakllantirish yo‘lida tub burilish yasadi. Bu yo‘lda eng muhim sohalardan biri sifatida sud-huquq tizimining isloh qilinishi ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Chunki adolat va qonun ustuvorligi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, xalqning davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasbetadi.

1992-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud hokimiyatining mustaqilligi, fuqarolarning sud orqali himoya huquqi va inson huquqlarining kafolatlanishi belgilab berilgan.<sup>i</sup> Biroq dastlabki yillarda sud tizimida mavjud bo‘lgan muammolar – sudlarning boshqa hokimiyat tarmoqlaridan mustaqil bo‘lmasligi, sudyalarini tayinlash va ishdan olishdagi tartibsizliklar, korrupsiyaviy holatlar va fuqarolarning sudga nisbatan ishonchsizligi kabi masalalar sud-huquq tizimini chuqr isloh qilish zaruratini yuzaga keltirdi.

2017-yilda mamlakatda yangi siyosiy irodaga asoslangan holda “Harakatlar strategiyasi” qabul qilinib, unda sud-huquq sohasidagi islohotlar alohida yo‘nalish sifatida belgilandi. Bu davrda ixtisoslashtirilgan sudlar – iqtisodiy, ma’muriy va ma’muriy huquqbazarliklar bo‘yicha sudlar tashkil qilindi, sudyalarini tayinlash va lavozimdan ozod etish jarayonlari Sudyalar oliy kengashi orqali amalga oshiriladigan bo‘ldi, shuningdek, sud majlislari ochiqligi, sud qarorlarining e’lon qilinishi, onlayn sudlov tizimi (“E-sud”) joriy etilishi kabi innovatsion yondashuvlar kirib keldi.<sup>i</sup>

2023-yilda yangi tahrirdagi Konstitutsiyada sud hokimiyatining mustaqilligi, sud protsessining adolatlari va oshkora bo‘lishi, har bir shaxsning malakali yuridik yordam olish huquqi, aybsizlik prezumpsiyasi kabi normalar yanada mustahkamlandi. Bu o‘zgarishlar xalqaro tashkilotlar – BMT, YXHT, Yevropa Ittifoqi va boshqa muassasalar tomonidan yuqori baholanmoqda.

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimi islohotlarining zamонавиј bosqichlari, ularning huquqiy asoslari, amaliyotdagи tatbiqlanishi, xalqaro standartlarga muvofiqligi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud islohotlarning jamiyat hayotiga ta’siri, fuqarolarning huquqiy madaniyatiga bo‘lgan ijobiy ta’siri va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari xususida fikr yuritiladi.

## Asosiy qism:

### **1. Sud-huquq tizimi islohotlarining normativ-huquqiy assoslari**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etish yo'lda izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi. 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyada ilk bor fuqarolarning sud orqali himoya huquqi, sud hokimiyatining mustaqilligi, har bir insonning shaxsiy daxlsizligi kafolatlangan bo'lib, bu huquqiy asos keyingi islohotlarning negizini tashkil etdi.

1990-yillarning o'rtaidan boshlab Jinoят-protsessual, Fuqarolik-protsessual kodekslar qabul qilinib, sud yurituvining tartibi va prinsiplari aniqlashtirildi. 2000-yillarda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash, sudlarning byudjet dan ajratiladigan mablag'lar orqali faoliyat yuritishi, sudyalar tanlov asosida tayinlanishi kabi ilg'or amaliyotlar joriy qilindi.

2017-yilda boshlangan "Harakatlar strategiyasi" asosida sud-huquq tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, 2023-yilda yangi tahrirdagi Konstitutsianing qabul qilinishi bilan inson huquqlari, qonun ustuvorligi va sud mustaqilligi yanada aniq huquqiy asosda mustahkamlandi.

### **2. Tizimli islohotlar va ularning amaliy natijalari**

Sud-huquq tizimidagi eng muhim islohotlardan biri – sudlarning ixtisoslashtirilgan holda tashkil etilishi bo'ldi. Jumladan, jinoят ishlari, fuqarolik ishlari, ma'muriy ishlari va iqtisodiy ishlarga oid alohida sudlar tuzildi. Bu, o'z navbatida, ishlarning tezkor va adolatli ko'rib chiqilishini ta'minlab, mutaxassislik darajasini oshirdi.

Axborot texnologiyalarini joriy etish orqali sud tizimining ochiqligi va shaffofligi ham sezilarli darajada oshirildi. "E-sud" axborottizimi orqali fuqarolar sudga da'vo arizasini onlayn topshirish, ish yurituvini kuzatish, qarorlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Sud majlislari videoyozyuvga olinishi, sud qarorlarining ochiq e'lon qilinishi bu yo'nalishda ochiqlik va javobgarlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, sudyalar faoliyatini baholash, ularning faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda tanlov asosida tayinlash tizimi yo'lg'a qo'yildi. Bu esa sud hokimiyatining obro'sini oshirib, fuqarolarning adolatga bo'lgan ishonchini mustahkamladi.

### **3. Advokatura va huquqiy yordam tizimidagi o'zgarishlar**

Yana bir muhim yo'nalish – advokatura faoliyatini rivojlantirish bo'ldi. Yuridik xizmatlar ko'rsatish, aholiga bepul huquqiy yordam berish tizimi isloh qilindi. Advokatlarning huquqiy maqomi mustahkamlandi, kasbiy faoliyatiga aralashish

holatlari keskin kamaydi. Advokatlar palatasi faoliyati kuchaytirilib, ular uchun maxsus o‘quv va malaka oshirish dasturlari yo‘lga qo‘yildi.

“Yagona huquqiy maslahat” axborot platformasi orqali fuqarolar onlayn tarzda bepul yuridik maslahat olish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu esa huquqiy savodxonlikni oshirish, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishga xizmat qildi.

#### **4. Xalqaro hamkorlik va indikatorlardagi ijobiy siljishlar**

O‘zbekiston sud-huquq sohasida xalqaro hamjamiyat bilan faol hamkorlikni kengaytirib bormoqda. Xususan, YXHT, BMT, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish, sudyalar va tergovchilar malakasini oshirish bo‘yicha qator loyihamalarni amalga oshirilmoqda.

“World Justice Project” tomonidan e’lon qilinadigan “Qonun ustuvorligi indeksi”da O‘zbekistonning o‘rnini sezilarli darajada yaxshilangan. Bu esa islohotlarning nafaqat ichki, balki xalqaro miqyosda ham e’tirof etilayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xorijiy ekspertlar va xalqaro tashkilotlar O‘zbekiston sud tizimidagi ochiqlik, sudlarning erkin faoliyati, korrupsiya qarshi kurashish bo‘yicha qilinayotgan sa’y-harakatlarni yuqori baholamoqda.<sup>i</sup>

#### **5. Dolzarb muammolar va istiqboldagi vazifalar**

Har qanday islohot jarayonida muammolar mavjud bo‘ladi. Hozirda sud tizimida ham ayrim kamchiliklar bor – sudyalar yuklamasining yuqoriligi, ayrim hududlarda sudyalar tanqisligi, sud qarorlarining ijrosi bilan bog‘liq qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda.

Shu sababli, kelguvida quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish zarur: sudyalarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, sud qarorlarini majburiy ijo etish mexanizmlarini kuchaytirish, sudlar moddiy-texnik bazasini yaxshilash, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirishga yo‘naltirilgan dasturlarni kengaytirish.<sup>i</sup>

Shuningdek, raqamli texnologiyalarini yanada keng joriy qilish, sun’iy intellekt asosida sud amaliyotini tahlil qilish, korrupsiaviy xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarni tatbiq etish zarur.

**XULOSA:** O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari davlatimizning demokratik taraqqiyot sari yo‘l olganini, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashda qat’iy siyosiy iroda mavjudligini yaqqol ko‘rsatmoqda. Bu islohotlar sud tizimining mustaqilligini ta’minlash, adolatli va shaffof sudlov jarayonini yaratish, sud-huquq organlari faoliyatini modernizatsiya qilish, fuqarolarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini oshirishga qaratilgan bo‘lib, jamiyat taraqqiyotida muhimomil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Sudlar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini oshirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali adolatga erishishning samarali vositalari yaratilmoqda. "E-sud" tizimi, sud qarorlarining ochiqligi, advokatura

tizimining rivoji, bepul yuridik yordam ko'rsatish mexanizmlari – bularning barchasi fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar O'zbekiston sud-huquq tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, inson huquqlarini himoya qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lidagi sa'y-harakatlarning samaradorligini oshirishga yordam bermoqda. "Rule of Law Index" kabi xalqaro reytinglarda O'zbekistonning o'rni yaxshilanganining o'ziyoq bu islohotlarning natijadorligidan dalolat beradi.

Ammo mavjud muammolar ham yo'q emas. Sudyalar yuklamasining ortiqligi, sud qarorlarini ijro etishdagi muammolar, huquqiy ong va madaniyat darajasining pastligi – bular kelgusida ham chuqur e'tibor talab etadigan masalalardir. Shu boisdan, bu yo'nalishdagi islohotlarni izchil davom ettirish, har bir bosqichda natijadorlik va samaradorlikka erishish muhim vazifa bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari nafaqat huquqiy davlat qurilishi yo'lida muhim qadam, balki jamiyatda adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolik ishonchini mustahkamlovchi asosiy omildir. Ushbu yo'nalishdagi islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish esa kelajakdagi taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlik kafolatidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992-yil, 2023-yilgi o'zgartirishlar bilan). - <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" - <https://lex.uz/docs/-3107036>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-martdag'i PF-18-sonli Farmoni "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida".
4. "World Justice Project: Rule of Law Index 2023" – <https://worldjusticeproject.org/>
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy sayti – [www.supcourt.uz](http://www.supcourt.uz)
6. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi – [www.sudyalar.uz](http://www.sudyalar.uz)
7. A. Yoqubov. "Sud hokimiyatining mustaqilligi: nazariy va amaliy jihatlar". – Toshkent, 2021.
8. BMT Inson huquqlari kengashi materiallari – [www.ohchr.org](http://www.ohchr.org)
9. YXHT O'zbekistondagi loyihalari haqida ma'lumotlar – [www.osce.org/uzbekistan](http://www.osce.org/uzbekistan)
10. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi – [www.minjust.uz](http://www.minjust.uz)